

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-sentyabr

RAQAMLAR:

- Xizmatlar sohasida 17,4 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda.
- 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 5737,1 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1892,7 ming.so'mni tashkil etdi.

Zamonaviy jamiyat hayotida xizmatlar sohasi juda keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Bugungi kunda u yoki bu turdagi xizmatlar ko'rsatmaydigan yoki hech bo'lmaganda unga duch kelmagan korxonalar deyarli qolmagan.


Hozirgi vaqtda Andijon viloyatida 27 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan, xizmatlar sohasida 17,4 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning jami korxonalar va tashkilotlar sonidagi ulushi 64,4 % ni tashkil etdi.

2018 yil 1 oktyabr holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2018 yil 1 oktyabr holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar (25,2 %) yuqori ulushni egallaydi.

2018 yil 1 oktyabr holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %



Yaqin va uzoq xorij davlatlari bilan o'zaro hamkorlikni kengaytirish, turizm sohasini jadal rivojlantirish yashash va ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilot sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi 4,8 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 3,8 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,3 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar ulushi 1,9 % ni tashkil etdi.


2018 yil yanvar-sentyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 5737,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,4 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	5737,1	107,4
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	368,4	115,8
moliyaviy xizmatlar	759,6	124,9
transport xizmatlari	1 370,1	102,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 334,7	103,3
yashash va ovqatlanish xizmatlari	92,6	102,5
savdo xizmatlari	1 953,5	103,5
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	177,9	102,2
ta'lim sohasidagi xizmatlar	219,4	112,0
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	79,1	122,7
ijara xizmatlari	137,6	112,2
kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	149,9	103,6
shaxsiy xizmatlar	256,4	101,3
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	31,4	117,5
boshqa xizmatlar	141,0	109,5

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlari hajmi (336,3 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (80,5 mlrd. so'm), transport xizmatlari (38,2 mlrd. so'm) shaxsiy xizmatlar (36,6 mlrd. so'm), ta'lim sohasi xizmatlari (18,8 mlrd. so'mga) oshganligi kuzatildi.


2018 yil yanvar-sentyabr oylarida alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, %



Xizmatlar hajmining nisbatan sezilarli bo'lmagan holda o'shishi me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar bo'yicha kuzatildi. Ularning hajmi 2017 yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar sohasida (124,9 %); sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (122,7 %); me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (117,5 %); aloqa va xborotlashtirish xizmatlari (115,8 %); ijara xizmatlari (112,2 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari shaxsiy xizmatlar (101,3 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (102,2 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (102,5 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlari sezilarli ulushni egallaydi. 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida uning ulushi 34,1 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (23,9 %), moliyaviy xizmatlar (13,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,4 %) egallaydi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hamda sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo'yicha nisbatan yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan bo'lsada, lekin ularning ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi arzimasi (1,9 %) ni tashkil etadi.


**2018 yil yanvar-sentyabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Andijon viloyati	5737,1	107,4
<i>shaharlar:</i>		
Andijon	2536,3	108,9
Xonobod	75,7	104,9
<i>tumanlar:</i>		
Oltinko'l	200,1	106,7
Andijon	334,0	106,8
Baliqchi	272,0	105,9
Bo'z	66,2	105,5
Buloqboshi	166,8	105,6
Jalaquduq	213,8	105,9
Izboskan	267,0	106,2
Ulug'nor	54,2	104,7
Qo'rg'ontepa	254,0	106,1
Asaka	374,9	106,3
Marhamat	200,4	106,2
Shahrixon	361,1	106,6
Paxtaobod	225,5	106,3
Xo'jaobod	135,1	105,8

Viloyatda shahar va tumanlar kesimida Andijon shahri (2536,3 mlrd.so'm) yetakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Andijon shahri bo'yicha 108,9 % ni tashkil etdi.

Andijon shahrida yuqori o'sish sur'atining ta'minlanishi birinchi navbatda aholi real daromadlarining oshishi, yakuniy iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi bilan bog'liqdir. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Andijon shahrining ulushi 44,2 % ni tashkil etadi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati va ulushi, %




Yuqori o'sish sur'atlari Andijon shahri (108,9 %) va Andijon (106,8 %) tumanida kuzatildi. Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Xonobod shahrida (104,9 %) va Ulug'nor tumanida (104,7 %) kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida eng kichik ulush Ulug'nor tumanida (0,9 %) qayd etildi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1892,7 ming.so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 281,9 ming.so'mga oshdi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Andijon shahrida - 5901,0 ming so'm qayd etildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining yuqori o'sish sur'ati Andijon shahrida - 107,4 % kuzatildi.

Andijon viloyati statistika boshqarmasi
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: Usmonov A

Tel:(+99871) 230-82-64